

ABDULLA QODIRIY HAJVIYALARIDA O‘Z QATLAMGA MANSUB SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI

*Tursunova Faridaxon G‘aniyevna – Farg‘ona politexnika instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),*

Pulatov Jasurbek Oybek o‘g‘li, 122-23 YSTJr guruhi talabasi

Аннотация

Maqolada Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida qo‘llanilgan o‘zbek tili leksikasidagi o‘z qatlamga mansub so‘zlar, umumturkiy leksemalarning fonetik belgilarini tasniflab o‘rganilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: leksika, morfologiya, sintaksis, leksema, fonetik belgi, leksik boylik, genetik jihati.

Аннотация

В статье описана классификация и исследование фонетических признаков слов узбекского языка, используемых в комических произведениях Абдуллы Кадыри, относящихся к своему пласту, общетюркским лексемам.

Ключевые слова: лексика, морфология, синтаксис, лексема, фонетический символ, лексическое богатство, генетический аспект.

Abstract

The article describes the classification and study of phonetic features of words of the Uzbek language used in the comic works of Abdulla Kadiri, which belong to their own layer, common Turkic lexemes.

Key words: vocabulary, morphology, syntax, lexeme, phonetic symbol, lexical richness, genetic aspect.

Abdulla Qodiriy hajviyalari yaratilgan davrda o‘zbek tili leksikasida, morfologiyasida, sintaksisida bir qancha o‘zgarishlar yuz berdi. Hozirgi o‘zbek tilining lug‘at tarkibi bu tilning so‘z boyligi, leksik-semantik sistemasi sifatida

shakllangan yaxlit hodisadir. O‘zbek tilida hozirda mavjud va qo‘llanishda bo‘lgan barcha so‘zlar, grammatik vositalar bu tilning o‘ziniki, uning o‘z boyligidir.

O‘zbek tili lug‘at tarkibida tarixan qadimgi davrlardan mavjud bo‘lib kelgan ko‘pgina turkiy so‘zlar mavjud. Genetik jihatdan qadimiy turkiy urug‘ va qabila tillarining leksik boyligi hisoblangan bunday so‘zlar hozirgi turkiy tillarning ko‘pchiligida bor bo‘lib, ular bu tillarning umumiy leksik boyligi tashkil etadi. Umumturkiy leksemalar quyidagi fonetik belgilarga ega bo‘ladi:

1) asosan bir bo‘g‘inli bo‘ladi: **bosh, qosh, ko‘z, men, kim**; juda kam miqdorda ikki bo‘g‘inli bo‘ladi: **o‘qi, ikki, olti, kumush** kabi;

2) so‘z boshida, bo‘g‘in boshida undosh tovushlar qatorlashib kelmaydi;

3) bo‘g‘in oxirida yoki so‘z oxirida undosh tovushlar qatorlashib kelmaydi: (ost, ust, old, ort kabi bir necha leksema bundan mustasno)

4) ikki bo‘g‘inli so‘zlar ko‘pincha ochiq bo‘g‘inlardan tuzilgan bo‘ladi: **o-ta, o-na, bo-la, ma-na, a-na, o‘-sha** kabi;

5) birinchi bo‘g‘indan keyingi bo‘g‘inlar hech vaqt unli bilan boshlanmaydi;

6) umumturkiy leksemalarda **h, s, f** va sirg‘aluvchi **j** tovushlari qatnashmaydi;

7) so‘z boshida **r, l, v** tovushlari qo‘llanmaydi;

8) so‘z oxirida **e (ye), o‘** unlilari uchramaydi (undov va mimemalardan tashqari);

9) urg‘u ko‘pincha oxirgi bo‘g‘inda bo‘ladi.

Grafik jihatda umumturkiy leksemalarda ayirish (‘) va yumshatish (Ь) belgilari uchramaydi. Umumturkiy leksemalar quyidagi morfologik belgilarga ega:

1. Qo‘shimchalar birin-ketin qo‘shiladi: **bog‘+la+m**;

2. Prefiks xarakteridagi qo‘shimchalar uchramaydi.

Umumturkiy leksemalarning asosiy qismi semantik jihatdan ko‘p ma’nodir: **bosh** (organ), **bosh** (bosh bola), **bosh** (bosh maqola), **bosh** (ko‘chaning boshi) kabi.

Abdulla Qodiriy hajviyalarida qahramon tilidan hikoya qilingan voqealarda o‘z qatlamga oid quyidagi so‘zlar qo‘llangan:

Qarindosh – urug‘chilik, yaqinlik ifodalovchi so‘zlar:

“Voy, dedim, voy yuraklaringdan **akang**, dedim“. “Manim oldimda unga-bunga til tekizding, deb ta’bing olinmasin, **uka!**” [1.16-bet] “Beri kel, ona deyman, ma deyman, obor deyman, duo qil **ona**, deyman... shundog‘ qilib bir haftani jo‘natib mandan hisobingni olsang, o‘zimdanda boshqa hech kim yo‘q!” [17-bet] “Arang **otang** yaxshi, **onang** yaxshi bilan bir so‘lkavoyga bahayal itaribman” [21-bet] “... shuning orqasidan enamga o‘ylanib **bola-chaqaning** kafilini olsam ham faqatla sallasining pashiga ishonib kekkaygan o‘sha xumsang agar padarim bo‘lsa ham to‘ng‘iz qo‘psin, azbaroyi xudo chakkam tirishti! U yog‘ini so‘rasang kaminaga oq sutini berib o‘sdirgan **enamga** ham ishonmay qoldim” [29-bet] “Yildan-yilga zamonani yer yutvotti aylanay **egachi**” [34-bet]. “Kiyib va yana birodarlarning duolarini olub, **qayin otamizning** ularidan chiqdik. “**Qudangizning** avzo‘i buzuq, sizlar mudofaaga o‘lturmay qoqanlaringiz vajhidan qudqngiz qizining olgan jarohatini Botirishin do‘sturga ko‘rsatib...”[83-bet].

Jinsiy tafovutlarni ifodalovchi so‘zlar:

“Shu afandi maktabida o‘qug‘an bolalaringni yuragida o‘g‘uti bor **yigit** bo‘ladi, deb o‘ylaysanmi?” [2. 13-bet] “Cho‘yxonada bitta ko‘kchoyni shopirib o‘ltirsam bir **kampir**: bolam och,-deydi, **qizim** kasal, **erim** o‘lgan,-deydi”[17-bet]. “**Erkak-ku erkak**, yosh yalang **xotinlarniyam** xudo teng-teppasidan urib tovonidan chiqarvotti, man sizga qoqindiq” [34-bet]

Abdulla Qodiriy hajviyalarida o‘z qatlamni hosil qiluvchi son so‘z turkumiga oid so‘zlar ham ko‘p qo‘llangan. Masalan: “Oliptalik qilmay **yetti yarim** so‘lkavoyini beravering,-deydi” [15-bet]. “Anav kun **bitta to‘qqiz** qaytqani ma‘rakaga chiqub,

xudo yo‘q der emin-a?”[12-bet]. Bu o‘rinda bir va to‘qqiz so‘zlari o‘z qatlamni tashkil qilib, bundan to‘qqiz qaytgan iborasi otlashib, otga xos egalik affiksini olib kelgan.

“Toshpo‘lat tajang nima deydi” hajviyasidagi Toshpo‘lat chapani odam bo‘lganligi uchun ham uning nutqini individuallashtirish maqsadida yozuvchi o‘z qatlamni tashkil qiluvchi undov va taqlid bildiruvchi so‘zlardan unumli foydalangan. Toshpo‘lat tajang nutqida voy undovi ko‘p ishlatilgan. Masalan: “**Voy**, dedim, voy sani o‘sha olipta qilub tuqqanni...dedim” [12-bet]. “**Voy**, dedim, voy yuraklaringdan akang, dedim” [13-bet]. “**Hoy**, qizilbosh! Chilimingni berasanmi, yo‘qmi, it emgan?” [15-bet] “Bir piyola choyimiz bor, **hov!**” [15-bet]. “**Qut-qut-qut!** – deb bolalarning oldidan o‘tsa hammasi ham qochub bir burchakka to‘planibdir!” [13-bet] “Xudoy tavba, to‘rtta kuchun bolani bog‘lab uchuribman dumiga! **Ang-ang** qiladi, qiyquriq...” [14-bet]

Yuqorida qo‘llangan taqlid so‘zlar “qut-qut-qut” xo‘rozning ovozigga taqlidni bildirsa, “ang-ang” itning ayanchli holatda chiqargan ovozigga taqlidni bildiradi.

Adib hajviyalarida o‘z qatlamni tashkil qiluvchi so‘zlarning ko‘pchiligi olmosh so‘z turkumiga xosdir. Bulardan **men (man), biz, siz, shu, bu, o‘sha, o‘z** olmoshlari ko‘p uchraydi. Masalan: **Bu nima o‘zi? O‘z** ko‘nglida olipta shekillik. Ishingdan qolmay, **o‘sha** olub bergan shaharingni popkachangga solub beray!... **San** aytchi, Mahkam! **Bizda** pul yo‘qmi”...[3.19]

Toshpo‘lat tajangdan farqli o‘laroq Kalvak Mahzum nutqida o‘z qatlam so‘zlari kam qo‘llangan. Toshpo‘lat tajang men (man) olmoshini ko‘p qo‘llasa, Kalvak Mahzum bu olmosh o‘rnida kamina, faqir so‘zlarini ishlatadi. Toshpo‘lat tajang nutqida qo‘llangan fe‘llarning deyarli barchasi o‘z qatlamga xos. Kalvak Mahzum esa o‘zlashgan qatlamga xos so‘zlardan foydalansa-da, uning nutqida ishlatilgan fe‘llar ko‘proq o‘z qatlamni tashkil qiladi.

O‘zbek tili lug‘at tarkibining boyishida ichki manba imkoniyatlari muhim resursdir. Hozirgi o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibining taxminan yarmini turkiy

soʻzlar tashkil qiladi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til ham faqat oʻz ichki resurslaridan foydalanmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Қодирий А. Тошпўлат тажанг нима дейди?, Калвак таҳзумнинг хотира дафтаридан. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. Misollar shu kitobdan olingan, faqat sahifasi koʻrsatilgan.
2. Турсунова Ф. Г. Использование монолога при создании сатирических персонажей (на примере произведений Абдуллы Кодири) // Достижения науки и образования. 2018. №15 (37). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-monologa-pri-sozdanii-satiricheskikh-personazhey-na-primere-proizvedeniy-abdully-kodiri>
3. Tursunova F. A Comic Character, Monologic Speech Itself in Creating A Portrait (Example Of Abdullah Qadiri's Works). *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 22, 2023. 18–20. Retrieved from <https://periodica.org/index.php/journal/article/view/630>
4. 1. Акбарова, Ш. Ф. (2023). ЎЗБЕК НАСРИДА А. КАМЮ ТАЪСИРИ ВА ТАЛҚИНИ. *Scientific progress*, 4(4), 321-325.
5. 2. Gʻaniyevna, A. S. (2023). TALABALARNING FRANSUZ TILIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(6), 311-315.
6. 3. Akbarova, S. G. (2023). TYPOLOGICAL SIMILARITY AND INTERACTION—AN ACTUAL PROBLEM OF COMPARATIVE LITERATURE. *Procedia of Theoretical and Applied Sciences*, 8(8), 19-22.
7. 4. Акбарова, Ш. (2022). Адабиётшуносликда талқин ва герменевтика масалалари. *Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке*, (1), 44-45.